

**ANVAR OBIDJON LIRIKASIDA SEMIOTIK XUSUSIYATLAR**  
**СЕМИОТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА В ЛИРИКЕ АНВАРА ОБИДЖАНА**  
**SEMIOTIC CHARACTERISTICS IN ANVAR OBIDJAN'S LYRICS**

Yo'Ichiyev Qahhor Vahobovich<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Yo'Ichiyev Qahhor Vahobovich

– Filologiya fanlari doktori, dotsent

**Annotatsiya**

*Maqolada iste'dodli shoir Anvar Obidjon uchlik she'rlari tahlili orqali XX asr so'nggi choragida o'zbek she'riyatida yuz bergan struktural o'zgarishlar haqida fikr yuritish maqsad qilingan. Kirish qismida muammoning dolzarbligi izohlangan. Xususan, o'zgina so'z bilan teran mazmun ifodalash, uch qatorli she'rda katta badiiy-ijtimoiy g'oyalari yoritishini o'rganish zarurati asoslangan. Semiotikaning nazariy asoslari hamda struktural tahlilga oid ilmiy-nazariy adabiyotlarga munosabat bildirilib, manbalarga asoslangan holda maqolaning metodologiyasiga aniqlik kiritilgan. Bunda struktural tahlil asosida semiotik xususiyatlarning lirikadagi o'rni ochib beriladi. Buning uchun ilmiy adabiyot tahlilidan kelingan asosiy natijalar belgilab olingan. Kichik she'rda har bir belgi, tovush, so'z bo'lib, o'quvchini assosiativ fikrlashga undashi va shu yo'l bilan uch misrali she'rning mazmuniy qatlami teranlashishi ta'kidlangan. Tahlil qismida esa uchlik she'rlar tahlil etilib, shoirning badiiy-ijtimoiy g'oyalari, lirik kechinmalari aniq detal, badiiy kod yordamida ifodalaniishi ilmiy isbotlangan. Tahlil davomida muallif Atoullah Husayniy, Nikola Bualo, Yuriy Lotman, Menegetti Antonio kabi taniqli olimlarning ilmiy-nazariy konsepsiyalariga asoslanadi. Xulosa esa tadqiqot jarayonida kelingan umumlashma fikr-xulosalar ixcham shaklda bayon etilgan. Maqola so'nggida esa foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati alifbo tartibida keltirilgan.*

**Аннотация**

*В статье ставится задача осмыслить структурные изменения, произошедшие в узбекской поэзии в последней четверти XX века, посредством анализа трехстрочных стихотворений талантливого поэта Анвара Обиджона. Актуальность проблемы объясняется во введении. В частности, в его основе лежит необходимость в немногих словах выразить глубокий смысл, изучить озарение великих художественных и социальных идей в трехстрочном стихотворении. Обсуждены теоретические основы семиотики и научно-теоретической литературы по структурному анализу, на основе источников уточнена методология статьи. При этом в структурном анализе раскрывается роль семиотических признаков в лирике. Для этого отмечены результаты, полученные при литературоведческом анализе. Маленькие стихотворения представляют собой символы, звуки и слова, напоминающие читателю мыслить ассоциативно, и таким образом подчеркивается, что содержательный пласт трехстишия углубляется. В аналитической части анализируются трехстрочные стихотворения и научно доказывается, что художественные и социальные идеи, лирические переживания поэта выражаются с помощью конкретных деталей и художественного кода. При анализе автор опирается на научно-теоретические взгляды таких известных ученых, как Атоулла Хусайний, Никола Буало, Юрий Лотман, Менегетти Антонио. В заключении в сжатой форме представлены общие выводы, сделанные в ходе исследования. В конце статьи приводится список использованной литературы в алфавитном порядке.*

**Abstract**

*The article aims to reflect on the structural changes that occurred in Uzbek poetry in the last quarter of the 20th century through the analysis of the three poems of the talented poet Anvar Obidjon. The relevance of the problem is explained in the introduction. In particular, it is based on the need to express a deep meaning with few words, to study the illumination of great artistic and social ideas in a three-line poem. The theoretical foundations of semiotics and the scientific-theoretical literature on structural analysis are discussed, and the methodology of the article is clarified based on the sources. Based on structural analysis, the role of semiotic features in lyrics is revealed. For this purpose, the main results from the analysis of scientific literature have been defined. It is emphasized that every sign, sound, and word in the small poem encourages the reader to think associatively and thus deepens the content layer of the three-line poem. In the analytical part, three poems are analyzed, and it is scientifically proven that the poet's artistic and social ideas, lyrical experiences are expressed with the help of specific details and artistic code. During the analysis, the author is based on the scientific-theoretical opinions of well-known scientists such as Atoullah Husayniy, Nicola Bualo, Yuriy Lotman, Meneghetti Antonio. In the conclusion, the general conclusions reached during the research are presented in a concise form. At the end of the article there is a list of used literature in alphabetical order.*

**Kalit so'zlar:** she'r, uchlik, semiotika, kod, belgi, badiiy estetik-funksiya, lirik kechinma, struktur o'zgarish, lirik subyekt.

**Ключевые слова:** стихотворения, трехстиший, семиотика, код, знак, художественно-эстетическая функция, лирической переживания, структурное метаморфозы, лирический субъект.

**Key words:** poem, triplets, semiotic, code, symbol, artistic aesthetic-function, lyrical experience, structural change, lyrical subject.

**KIRISH**

XX asrning qator madaniy yutuqlari, shaxs va jamiyat munosabatlaridagi nomutanosiblik, ijtimoiy taraqqiyot tezligi kishi hayotida jiddiy o'zgarishlar, xalqimiz hayotiga, kishilar turmush

tarziga aylangan yangi odat va yangiliklar ijtimoiy hayotning aksi sifatida adabiyotda ham iz qoldirdi. Natijada yangi o'zbek she'riyati ham jiddiy evrilishlarga uchradi. Endi uning shakl va mazmuni an'anaviy qoidalarda ko'ra, ko'proq yangicha tus ola boshladi. She'r shakli uch qator yoki undan ham kichik darajaga tushdi. Shoirlar qisqa misralarda nisbatan teran mazmun ifodalay boshladi. Bunda o'quvchining assotsiativ fikrlashga undash, har bir belgi, tovush, so'zga jiddiy e'tibor qaratildi. Natijada she'r strukturasi jiddiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Bu o'zgarishlar she'riy janrlarning qayta ko'rib chiqilishi, asar tilida metonimiya o'rni pasayib, metaforaning ko'p qo'llanishi, an'anaviy shakllarning isloh qilinishiga olib keldi. Bu tarixiy zarurat, she'ning yashab qolish sharti edi. Bu esa adabiyotshunoslik oldiga kichik lirik she'rlarni struktural aspektidan tadqiq etish masalasini qo'yadi.

### **METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI**

Aslida ijtimoiy taraqqiyot bilan baqamti rivojlanadigan she'riyat va uning struktural o'zgarishlari haqida barcha davrda olimlar o'z fikrlarini aytib o'tishgan. Xususan, Y. Lotman "Asar tilidagi so'z belgi bo'lib kelishi mumkin. Tovush esa mustaqil ma'no bildiruvchi sifatida so'zga teng" [2] degan fikrni ilgari surdi. Italiyalik olim Menegetti Antonio esa asardagi obraz, avvalo, inson ekanligi, "Inson tabiati o'z qonuniyatlari, erki, zaruriyati, bilimi va qiziqishiga ega. Biz organizmimiz doirasida ko'plab signal,... kodlarni qabul qil..." ishga diqqat qildi. [3,13] Bu bir qarashda lirik she'rni maxsus kodlar, sistem adabiyotshunoslikning qat'iy qoidalaridan chetga chiqmaydigan moddiyatga aylantirar edi. Lekin bu yerda shoirlar badiiy so'z zimmasidagi vazifalarni teran anglagan holda she'riyatning azaliy qoidalarini saqlab qilishgan. Chunki "she'rda ma'no bo'lib, bo'lmasa jarang, She'r – nochor, shoirning esa holi tang" [1, 260] dir degan she'riyatning azaliy tamoyillari, xususan, ohangdorligi bo'lmasa, she'r mohiyatan boshqa ko'rinishga o'tib qolar edi. Shu ma'noda yangi she'riyat ham ilmi balog'aning "ma'nisi uldurkim, ko'ngulda borin ozgina lafz ila uning ma'nosi tugalligiga yetkurmastin bayon qilinmag'ay" [5,176] degan qoidasi o'z mohiyatini saqlab qolgan edi. Lekin endi o'zbek mumtoz lirikasining asosiy tamoyillari jahon she'riyatining ilg'or yutuqlari bilan sintezlashdi. O'tgan asrning 80-90 yillariga kelib, ijodkorlar qat'iy janr, qofiya tushunchalariga turlicha yondashib, jiddiy o'zgarishlar qildi. Voqelikni yangi estetik anglash jarayonida she'rlar mazmunan "to'lib-tosha" boshladi. Shakli qisqalik, mazmuniy teranlik she'r uchun asos bo'ldi. She'r strukturasi oddiylilik, obyektivlik, soddalik ijodkorni qoniqtirmay qo'ydi. "Yangi estetik norma fonida bu kabi she'rlar "usulsiz" deb qabul qilina boshlandi" [2]. Demak, lirik she'rda har bir tovush, harf, so'z badiylashgan kod vazifada ham kela boshladi.

### **NATIJA VA TAHLILLAR.**

Aslida ijodiy izlanish adabiyotning taraqqiyot dinamikasini belgilovchi muhim xususiyatlardan sanaladi. Barcha davrlarda badiiy adabiyot, jumladan, she'riyatdagi shakliyl-usbubiy, qisman mazmuniy evrilishlar xalq, millat ongi, idrokidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Shuning uchun badiiy asardagi yangiliklar doimo tahlil etib boriladi. Buni so'nggi yillarda kuzatilgan struktural o'zgarishlar, demiotek yangilanishlar misolida kuzatish mumkin. Zero, she'r tarkibidagi har bir so'z, tovush, belgi avvalo muallif, lirik qahramon tabiatidagi maxsus kod hisoblanadi. Bu kod tovush, so'z, tinish belgilari, ohang kabi struktural vositalar yordamida yuzaga chiqadi. Lekin bunda shoirning mumtoz she'riyat an'analari, tovushlardagi musiqiylik, ohangdorlik kabilarni saqlab qolishi kerak bo'ladi.

Anvar Obidjonning uchchanoq she'rlarini kuzatar ekanmiz, she'r strukturasi o'ziga xoslik voqelikni metafora yoki metaforik metonimiya orqali ifodalanganiga guvoh bo'lamiz. Masalan:

Tanamdan qo'r so'nmoqda,

Ko'zimdan nur so'nmoqda...

Durga to'lib borar bosh. [4.254]

Mazkur she'rda inson umrining o'tib borayotgani va tajribalari ortgani sayin aqli to'lishib borishi hodisasi ifodalangan. Lekin lirik qahramonning ichki kechinmasidagi o'ziga xoslik, she'r matnidagi badiiy obrazlilikni ta'minlash maqsadida muallif aynan metaforadan foydalangan. Bu yerda "umr" so'zi yashirin bo'lib ko'p nuqtaning o'rniga qo'ysa, she'r mazmuni ochiladi. Ammo, uning badiiy-estetik ta'siri biroq pasayishi mumkin. Shuning uchun shoir atayin "umr" so'zini tushirib qoldirib, uning o'rniga umumiy holatda metonimiya usuli yordamida o'tayotgan vaqtga, umrga ishora qilmoqda. Shu tariqa she'rda metaforik obraz va metonimik usul yonma-yon ishlatilgan. Aynan shu narsa she'rga mazmuniy butunlik, badiiy yaxlitlik baxsh etgan. Lirik qahramon

## ADABIYOTSHUNOSLIK

kechinmasini anglatayotgan “qo’r so’nmoqda” birikmasi matndan ajratib olinsa, uning ma’nosi juda g’aliz, umumiylik kasb etadi. Lekin kontekst doirasida “tanamdan”, “ko’zimdan” so’zlaridagi o’zaro ohangdorlikni yuzaga keltirib, she’rdagi belgilarning tovush jihatdan evfonikligini oshirgan. Ular mazmunning ohang yordamida ochilishiga hissa qo’shgan. Mazmuniy strukturadagi aniq yo’nalish yuzaga kelgan va mazmun individuallik, poetik mohiyat yoki ma’no kasb etadi. She’rda lirik qahramon quvvatini olayotgan narsa besamar ish, yumush, vazifa, vaqt, umr, farzand, omonat kabi ma’holarni anglatadi. Lekin shoir ularni aniq aytmaydi. Bu o’rinda shoir metafora yordamida mazmunlar assotsiatsiyasini yaratishga erishgan. Avvalo bu lirik qahramonning charchashida ko’rinsa, besamar o’tayotgan umrga achinish, tugab borayotgan g’ayrat, shijoatga ham ishora qilyapti. Buni keyingi satr orqali ham ilg’ash mumkin. “*Ko’zimda nur so’nmoqda*” satri metonimik asosda ko’zi xiralashishi degan jarayonni qayta nomlash bilan o’quvchiga lirik qahramon kechinmasini anglatadi. Lekin she’r bilan yaxlit metaforik birikma hosil qilayotganini inobatga olsak, u ham metaforik obraz yaratishda o’ziga xos vazifa bajaryapti. Ya’ni birinchi satrda lirik qahramon aytmoqchi bo’lgan umumiy g’oyani chuqurlashtirib, aniqlashtirib, takrorlab kelgan. Lekin asosiy gap aytilgani yo’q. Chunki lirik qahramon kimdir unga pand berayotgani, nimadandir ko’ngli to’lmayotganiga ishora qilyapti. Ammo bu hali mavhum. Ana shu mavhumlik “*Durga to’lib borar bosh*” satri orqali yo’qolyapti. Shu yerda aql aslida metonimiya orqali *dur*, deb qayta nomlangan. Chunki aql inson hayotida asosiy o’rin tutishi, u kishiga cheksiz moddiy-ma’naviy boylik olib kelishi haqidagi fikrlarni istagancha keltirish mumkin. *Dur* orqali aqlan yetuk kishining ichki kechinmalari ochib berilgan va obraz yaratilgan. Ana shu obraz metonimiya asosidagi metaforik obrazdir. U ma’no ko’chim turidan obraz turiga aylangan. Chunki lirik qahramon anglagan hayotiy haqiqatni she’rdagi metafora obrazga aylantirgan. She’rning badiiy-estetik kuchini kuchaytirgan. Undagi obraz tip jihatidan tahliliy-xulosaviy she’mi yuzaga chiqargan. Lekin voqelikni takillash jarayonida “-moqda” qo’shimchasining ikki bor qayta qo’llanishi, uchinchi o’rinda “-ar” qo’shimchasi orqali yana shu ma’no ifodalovchi shaklning kelishi lirik qahramon anglagan, his qilgan jarayon tugamaganini, asosiy g’oya badiiy-estetik funksiya nuqtai nazaridan o’quvchi dilida ham davom etishiga ishora bor. Bunda she’rdagi belgi va uning mazmun tomoni ham alohida o’ringa ega. Chunki qofiya (*nur, qo’r*) va radif (*so’nmoqda*)ning qo’llanishi, buning ustiga “*tanamdan*”, “*ko’zimdan*” so’zlaridagi ohangdoshlik, uchinchi misradagi r,b tovush tovlanmalari she’r strukturasi o’ziga xoslik kiritgan. Birinchisi, o’-o’ tovushlar zanjiri, ikkinchisi n-m-n-r-n-m tovushlari, uchinchisi esa t-d-d tizimi sanaladi. Ular mazmunning badiiy-estetik ta’sirini kuchaytirgan.

Bu hol keyingi satrlarda qisman o’zgarish bilan saqlanib qolgan. Uchinchi satrda esa asosiy g’oyaga mutanosib ravishda keskin o’zgarishlar yuz bergan. Ya’ni d-t; b-b-b va r-r-r tovushlar tizimi avvalgi satrlarda kechinma va mazmunning ohangdorligini oshirgan. Tovushlarning satrlar osha gorizonttal ravishda bu qadar o’zaro mutanosibliyi yaxlitlikni tashkil etsa, satrlar so’ngidagi o’ tovushining vertikal holda o’zaro ohangdorligi she’rga yanada musiqiylik bag’ishlagan.

Ma’lumki, “Leksik ahamiyatga ega bo’lgan har bir tovush alohida, mustaqil ravishda mavjud bo’ladi. Ammo tovush o’z maqsadiga ega, o’z holicha mavjud deyishimiz uchun so’z mazmuni bilan aloqasini o’rganish kerak. Shu yerda mazmuniy yuk oladigan tovush g’ishtga aylanadi. Undan esa so’z yasaladi”. [2] Masalan, “non” so’zi tarkibidagi tovushlarni fonemalarga bo’lib chiqsak, “n”, “o”, “n” ko’rinishi sodir bo’ladi. Ularning har biri so’zning lug’aviy ma’nosini tashiydi: n > n, o > o, n > n. Bu yerda “n”, “o”, “n” tovushlari parchalangan holda ham so’zning ma’nosini tashiydi. Chunki ular yonma-yon talaffuz qilinganda, ma’noviy jihatdan bir-biriga yaqinlashadi. Lekin yozilishda farq qiladi. Endi shu so’z she’riy matnga kirganda mazmun tabiati o’zgaradi:

Berayotib unga non,  
Hatto yovlar ham pinhon  
La’natlaydi xoinni. [4,170]

Non so’zi bu erda obrazning real holatini ochib berishga xizmat qilyapti. Lekin o’qilgandagina san’atning estetik kuchi seziladi. O’qilmaganda tovushning yozuvdagi modeli sifatida qabul qilinadi xolos. Mazmuniy jihatdan non so’zi oddiy tildagi so’zdan farq qiladi.

Bundan tashqari she’rda ohangdosh so’zlar: “non – pinhon” she’rning jarangini, musiqiylikni oshirgan. Chunki “she’rda ma’no bo’lib, bo’lmasa jarang, She’r – nochor, shoirning esa holi tang” bo’ladi. [1,260] She’rdagi ohangdoshlik, she’rning badiiy-estetik funksiyasining yuzaga chiqishini ta’minlovchi vositalardan biri bu o, n, l tovushlarining o’zaro uyg’unligida ko’rinadi. Tovushlarning

bir she'r doirasidagi bunday joylashuvi g'oyani tovush darajasidagi hissiy ta'sir yordamida anglash imkonini beradi. Shu orqali lirik qahramon obyektiv voqelikni o'quvchi ko'z oldida ta'sirli kinodek qayta jonlantiradi. Natijada she'r ijroviy lirikaga aylangan.

She'r sintaksisi voqelikning aniq harakatini o'ziga xos ritmik qurilish sifatida ko'rsatadi. Bu esa she'r tabiatidagi asosni shakllantirgan. Uning badiiy-estetik, ma'rifiy ta'siri insonni uyg'otish qudratini oshirgan. Chunki haqiqiy she'r inson ruhiy olamining asosidan yaraladi. "Insonning o'zagi ijobiy bo'lib, unda mangu hayotdan kelib chiqadi. Asosning makonida hamma narsa bor: mavjudlik, ruh, men. O'zakning ongli qismi yashashi, ishlashi va muammolarni hal etishi lozim" [3,12]. Shu ma'noda lirik qahramon anglagan va she'rda tilga olgan yov obrazi xoin obrazidan ustun, deyish mumkin. Shuning uchun yov garchi o'ziga yordam bergan bo'lsa-da, xoinga non berayotib uni la'natlaydi. Chunki insoniyat yadrosidagi ijobiy kuchlarni uyg'otish butun jamiyatning yutug'i, salbiy tushunchalarni uyg'otish esa butun jamiyatning nuqsoni sanaladi. Demak, yov ham avvalo, inson, u ham o'z xalqining yetuk qadriyatlarini bilan yashaydi. Unda ham, avvalo, amoral (bu yerda xoin) odamga nisbatan nafrat uyg'onishi tabiiy sanaladi. "Non" so'zi she'rda g'oyani ochishda badiiy detal, badiiy-estetik funksiyani bajarishda esa maxsus kod vazifasini bajaradi.

Shoir she'riy asarda u yoki bu kodni qo'llar ekan, avvalo, o'z mohiyatidagi badiylashgan informatsiya, kechinmani tashqi borliqqa olib chiqadi. She'rda kod belgi, tovush, so'z, obraz bo'lishi mumkin va bularning har biri badiiy informatsiyalarning koordinatori vazifasini ham bajaradi:

Oy shodon, tun charog'on,

Uxlar, go'yo chol Qo'qon

Xudoyorxon qasrida. [4,158]

"Oy", "tun", "Qo'qon", "qasr" detallari she'rda g'oyani ochishda badiiy mohiyatini, milliy xarakteri, dunyoqarashini ochib bermoqda. She'rda oy go'zallik, sokinlik, ulug'lik timsoli; havo ochiqligini bildiruvchi vosita, so'zlovchining ko'tarinki kayfiyati haqida ma'lumot beradi. Lekin lirik qahramon ongida asosiy niyat bu emas. Balki Qo'qon obrazidir. Chunki Qo'qon tarixda milliy o'zlikni anglash, taraqqiyotni boshqarish salohiyatiga ega katta ijtimoiy kuch bo'lgan. Ammo, u shoir aytganidek, hozircha qasrda uxlayapti. Bu holat o'quvchining ongida shoirning vatanparvarlik, o'zlikni anglashga intilish g'oyalarni amalga oshirishga biroz to'sqinlik qiladi. Chunki tiriklik tabiatidan ma'lumki, tirik va uyg'oq narsalargina o'sadi, rivojlanadi, ular bir-biri bilan bog'liq bo'ladi. Lirik qahramon milliy o'zlikni anglash uchun Qo'qonda uxlayotgan tarixni uyg'otish lozimligini ta'kidlaydi.

She'rda "o" unlisining 11 marta takrorlanishi mazmun tarkibidagi hissiy-estetik ta'sirni kuchaytirib, she'rning ohangdorligi, musiqiyiligi oshirgan. Shu bilan birga undagi tasvir o'quvchi ongida yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradi. Lirik qahramon o'z holicha hayotiy sharoitdan o'ziga bog'liq bo'lgan bir bosqichdan boshqasiga o'tishga harakat qilyapti. Bu passiv holatdagi ozodlik, erkinlik muhiti. Ammo, hali tun, buning ustiga lirik qahramonning badiiy ideali hali to'la shakllanib ulgurmagan. Buni Qo'qonning uyg'oq emasligi bilan izohlash mumkin. Shuning uchun band oxirida badiiy voqelikka izoh kelgan: "Xudoyorxon qasrida". Shu erda so'zlovchi qalbidagi hissiy dinamikada biroz pasayish kuzatiladi. Ammo bu she'rning badiiy nuqsoni emas, balki shoirning o'ziga xos stilistik usulidir. Chunki bir paytlar ozod vatan haqida o'ylashning ham imkoni yo'q edi. Bu gaplar o'tgan asrning saksoninchi yillarida aytilganini inobatga olsak, shoirning katta jasoratga ega ekanligi oydinlashadi. Bu mulohazalar tadqiqotchining shunchaki fantaziyasi emas, balki badiiy asar tilidagi mazmuniy xarakterning o'quvchi ongida o'ziga xos davomidir. Zero, she'rda murakkab tizimni namoyon qilayotgan nutqiy belgilar yaxlitlashib, har qanday badiiy informatsiyani o'quvchiga yetkazishga qodir tizimga aylanadi.

#### XULOSA

1. She'r strukturasi har bir belgi, so'z, timsol badiylashgan kod hisoblanib, qahramon mohiyati yoki badiiy voqelik zamiridagi estetik va ma'rifiy informatsiyalarni yuzaga chiqaradi. She'r matni va uni o'qish jarayonida belgi va tovush o'rtasidagi munosabat aniqlanadi. Ya'ni she'rning birinchi satridagi bir necha tovushlar tizimi qatnashib, lirik kechinmaning tabiatini aniqlab kelgan.

2. Anvar Obidjon uchliklar yaratar ekan, milliy qadriyat va umuminsoniy g'oyalarni birlashtirgan holda aniq badiiy kodlarga singdirib yuborgan. Natijada shakliy-uslubiy izlanishlar katta samara bergan. Shoir kichik hajmli she'rda teran ma'no ifodalashgan erishgan.

---

**ADABIYOTSHUNOSLIK**

---

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Буало Н. Шеърий санъат. / Қуроноф Д., Б.Раҳмонов. Ғарб адабий–танқидий тафакқури тарихи очерклари. Ўқув қўлланма-хрестоматия. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.258-273. (Bualo N. Poetic art. / Kuronov D., B. Rahmonov. Essays on the history of Western literary-critical thought. Study guide-khrestomatiya. - Tashkent: Science, 2008. – P.258-273.)

2. Лотман Ю. Лекции по структуральной поэтике. <http://www.gumer.info/biblioteke>. (Lotman Yu. Lectures on structural poetics. <http://www.gumer.info/biblioteke>.)

3. Менегетти Антонио. Словарь образов. – Ленинград: ЭКОС, 1991. – 112 с. (Meneghetti Antonio. Dictionary image. - Leningrad: EKOS, 1991. – 112 p.)

4. Обиджон, Анвар. Танланган шеърлар тўплами. – Тошкент: Шарқ, 2006. – 360 б. (Abidjon, Anwar. A collection of selected poems. - Tashkent: Sharq, 2006. - 360 p.)

5. Хусайний, Атоуллоҳ, Бадойиъус-санойиъ. – Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 400 б. (Hosseini, Atoullah. Industry. - Tashkent. Publishing House of Literature and Art named after Gafur Ghulam, 1981. – 400 p.)